

## SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUFNING ASARLARIDA BOLA TARBIYASIDAGI DINIY QARASHLAR

**O'rmonova O'g'iloy Olimjon qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya** Ushbu maqolada Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusufning diniy qarashlari asosida oilada farzand tarbiyasi „Baxtiyor oila” asari timsolidan tahlil qilib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Baxtiyor oila, farzand, jigarpora, e'tiqod, ota-onा.

**Аннотация** В данной статье анализируется воспитание детей в семье на основе религиозных взглядов шейха Мухаммада Содика Мухаммада Юсуфа на примере произведения «Счастливая семья».

**Ключевые слова:** счастливая семья, ребенок, благотворительность, вера, родители.

**Annotation** This article analyzes the upbringing of children in the family based on the religious views of Sheikh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf in the example of the work "Happy Family".

**Key words:** Happy family, child, charity, faith, parents.

Shayx Muhamnad Sodiq Muhammad Yusuf asarlarining barchasi kattyu, kichikka namuna va ibrat bo'lishiga shayximizning "Baxtiyor oila" kitobini mutolaa qilar chog'imiz yana bir bor amin bo'lishimiz mumkin.

Darhaqiqat, ushbu asar mutolaasiga kirishar ekansiz, insonning paydo bo'lishidan to ularning juft qilib yaratilishi; nikoh munosabatlari; farzandning dunyoga kelishi; uning tarbiyasi; farzandning ota-onा oldidagi burchlari yoxud ota-onaning farzand oldidagi burchlari kabi dolzarb masalalar bayon qilinib, keng mushohadaga olingan. "Baxtiyor oila" kitobining shiori sifatida keltirib o'tilgan...

"Ahli sunna val jamoa mazhabi asosida pok aqiyda va musaffo Islomga intilish, Qur'on va sunnatni o'rganib amal qilish, islomiy ma'rifat taratish salafi solih-ulug' mujtahidlarga ergashish, kengbag'irlik va birodarlik ruhini tarqatish, diniy savodsizlikni tugatish, ixtilof va firqachilikka barham berish, mutaassiblik va bid'at-hurofotlarni yo'qotish" kabi masalalar ham bu kitob nafaqat yoshlar uchun balki, barcha yoshdagi insonlar uchun butun umri davomida as qotadigan ibrat maktabi vazifasini bajara olishiga isbot bo'la oladi. Mazkur asarning yozilishidan asosiy maqsad ham yuqoridagi masalalar

borasida millatga, jamiyatga ozgina bo'lsa ham naf keltirishidir. Ushbu asarda oilaning mohiyati, ahamiyati, tarixiy rivojlanishi, tuzilishi, oiladagi saodat tamoyillari kabi masalalar xususida so'z boradi. Islomda oila diniy mohiyatga ega. Oila qurish haj kabi ham moliyaviy, ham badan ibodatidir. Ba'zi olimlar oila qurish nafl namozlaridan fazilatliroq deganlar.

Shayximiz fikr yuritib o'tgan asosiy masalalardan yana biri bu farzand tarbiyasidir.

Alloh taolo agar xohlasa birdaniga xilma-xil, son-sanoqsiz erkak va ayollarni ham yaratishga qodir edi. Ammo, u zot bunday qilishni xohlamadi. Yer yuzidagi turli insonlarning qarindoshlik aloqalari oila rishtalari ila o'zaro bog'liq bo'llishlarini iroda qildi. Islomda oilani mustahkamlashga katta e'tibor berilishining siri ham shunda. Alloh taolo Na'ba surasida bunday deb marhamat qiladi:

"Va sizlarni juft qilib yaratdik" (8-oyat)

Ya'ni erkak va ayol qilib. Binobarin, Alloh taolo inson zotini juft qilib, erkak-ayol qilib yaratishining o'zi mo'jizadir. Qolaversa, har bir juftning har ikki tomoniga o'zidan nasl qoldirishga cheksiz muhabbat berib qo'yilganligi Alloh taoloning insonlarga bo'lgan marhamitidir. Zero, "Molk-mulk, bola, chaqa shu hayoti dunyo ziynatidir".

(Qahf surasi, 46-oyat)

Hazrati Payg'ambar (s.a.v) farzandni "jigarpora" deb ta'riflaganlar, nevaralari Hasan va Husanni "menjng dunyodago ikkita gulim" deganlar. Bundan tashqari Hazrati Payg'ambar (s.a.v) Hasanni yelkalariga mindirib:

- "Allohim! Men uni sevaman. Sen ham sev" deganlar.

Yuqoridaqoyatlardan ham ko'rishimiz mumkinki, Islomda farzandlarning huquqlari qat'iy belgilangan bo'lib, bular ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari yashayotgan jamiyatlariga vazifa qilib yuklatilgandir. Bu haqlarni ado etish vojib bo'lib, unga amal qilish majburiyatdir. Aksariyat olimlar "bola tarbiyasi homila davrida boshlanadi" deb hisoblashadi. Ammo, shayximiz o'z asarlarida bu masalaga ham oydinlik kiritib o'tganlar. Aynan mana shu masala yuzasidan ota-onaning farzandlar oldidagi burchlari – ular paydo bo'lmasdan oldingi, homila hollaridagi va tug'ilganlaridan keyingi qismlarga taqsimlanishi asarda keltirib o'tilgan. Darhaqiqat, shariat ta'limotlari bo'yicha ham, ota-onaning farzand oldidagi burchlari oilaqurishdan avval – umr yo'ldoshini tanlashidan boshlanadi. Ya'ni, ayol o'z farzandiga munosib ota, erkak o'z farzandiga munosib ona tanlashi lozimligi yuqoridaqoyat fikrimiz mazmunini tugallab beradi.

Oish roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi:

Rasulloh sollallohu alayhi vassalam dedilar:

"Urug'laringizga ixtiyorni yaxshi qiling. Tengni nikohingizga oling va o'shalarga nikihlang!"

Ushbu hadisda Rasulloh sollallohu alayhi vassalam bo'lajak ota va onalarga morojaat qilib, o'zlarining bo'lajak farzandlariga munosib ota va munosib ona tanlashga amr qilmoqdalar. Toki farzand esini taniganda otasi va onasi bilan ularning har taraflama yetuk sifatlari bilan faxrlanib yuradigan bo'lsin. Zero, farzand-Yaratganning ota-onaga eng yuksak in'omi. Farzand qalbi esa, Xudoning ota-onsa qo'liga parvarishlash uchun bergen eng katta omonatidir.

Alloh taolo oli Imron surasida shunday deb marhamat qiladi:

Shu chog'da Zakariyo Robbiga duo qilib:

"Robbim menga o'z huzuringdan pokiza surriyot bergin. Albatta sen duoni eshitguvchisan" dedi. (38-oyat)

Shuning uchun ham kelin-kuyovlar doimo Allah taolodan solih farzand so'rab, davomli ravishda duo qilib turishlari kerak. Bu juda ham muhimdir. Bola tug'ilishi bilan uning bir muncha haqlari ham o'zi bilan birga tug'iladi. Ulardan eng asosiysi, poknasab bo'lish haqqidir. Zero, nikohning asl maqsadlaridan biri ham nasl-nasabni saqlashdir. Busiz oila ham, ota-onalik ham, farzandlik ham, qarindoshlik ham, urug'chilik ham, jamiyat ham bo'lmaydi. Islom shariatida nasabga alohida e'tibor berilishining sababi ham shunda.

Bundan tashqari bolaga munosib ism qo'yish, uning tanglayini ko'tarish, aqiyqa marosimini o'tkazish kabi vazifalar ham ota-onaning vazifalariga kiradi.

Yuqorida ota-onaning farzandi oldidagi u tug'ilmasdan oldingi va keyingi burchlari xususida so'z yuritdik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ota-onaning farzandlariga vaqt ajratishi, ularni Xudoga e'tiqodli, odamlarga inshonchi baland qilib tarbiyalashi, ularning hayotdagi eng yaqin do'stiga aylanishi zarur.

Zero, bolalar ota-onalar tizzasidagi o'quvchilardir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusuf „Baxtiyor oila” Hilol-nashr Toshkent-2023.
2. Shayx Muhammad sodiq Muhammad Yusuf „Baxtli oila” Hilol-nashr Toshkent
3. Glotr.uz
4. [www.Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)

5. Journalpro.ru